

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 97 sahifa.
2026-yil, fevral*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJIRIBASI	66
Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich	
XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o’g’li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	



YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA'MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Mirzatov Baxtiyor Toxirovich

Namangan davlat texnika universiteti, Mustaqil tadqiqotchi

Email: Mirzatov1991@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi globalashuv jarayonida iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda innovatsion iqtisodiyotga o'tishda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda yosh avlodning tashabbuskorligi, kreativ fikrlashi, texnologik yangiliklarni tez o'zlashtirish qobiliyati va raqobatbardosh biznes g'oyalarini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy transformatsiya, tadbirkorlik, innovatsion loyihalar, boshqarish va rivojlantirish, bozor ehtiyojlarini qondirish, moliyaviy hisobot.

Abstract. This article examines the importance of developing youth entrepreneurship as one of the key factors in ensuring sustainable economic growth, creating new jobs, and transitioning to an innovative economy in the context of globalization. The study analyzes the initiative, creative thinking, ability to rapidly adopt technological innovations, and the potential of the younger generation to generate competitive business ideas. In addition, practical recommendations aimed at supporting and developing youth entrepreneurship are proposed.

Keywords: economic transformation, entrepreneurship, innovative projects, management and development, meeting market needs, financial reporting.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение развития молодежного предпринимательства как одного из ключевых факторов обеспечения устойчивого экономического роста, создания новых рабочих мест и перехода к инновационной экономике в условиях современной глобализации. В исследовании анализируются инициативность, креативное мышление, способность молодежи быстро осваивать технологические инновации и формировать конкурентоспособные бизнес-идеи. Также разработаны практические рекомендации, направленные на поддержку и развитие молодежного предпринимательства.

Ключевые слова: экономическая трансформация, предпринимательство, инновационные проекты, управление и развитие, удовлетворение потребностей рынка, финансовая отчетность.

KIRISH

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy transformatsiya jarayonlarida aynan yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, ularning innovatsion loyihalarini rag'batlantirish hamda biznes muhitiga integratsiyasini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Yoshlar tadbirkorligining nazariy asoslari iqtisodiyotda yoshlarning mustaqil iqtisodiy faoliyat yuritishiga ta'sir etuvchi omillarni, mexanizmlarni, institutsional shart-sharoitlarni hamda ularning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini tushuntirib beruvchi konseptual yondashuvlar majmuasini tashkil etadi.



Tadqiqotlarga tayangan holda ta'kidlash mumkinki, yoshlar tadbirkorligi 18–30 yosh oralig'idagi yoshlar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, boshqarish va rivojlantirish jarayonini anglatadi. Ushbu tushuncha yoshlarning innovatsion g'oyalari, tashabbuskorligi, bilim va ko'nikmalariga asoslangan holda yangi mahsulot yoki xizmatlar yaratishga, bozor ehtiyojlarini qondirishga, o'zini o'zi band qilishga hamda jamiyat iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatini ifodalaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimiz olimlaridan A.X. Xolov yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash samaradorligini oshirish ko'plab omillarga bog'liqligini ta'kidlab, ushbu omillar sirasiga O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni kiritish mumkinligini qayd etadi.

MDH mamlakatlari olimlari G.G. Ivanov, S.L. Orlov va Yu.K. Bajenovlarning fikriga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda universitetlar ilm-fan markazlari sifatida faoliyat yuritib, yoshlarni ta'lim olish hamda tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda muhim o'rin egallaydi. Yoshlar jamiyatning eng faol qatlamlaridan biri bo'lib, mamlakat iqtisodiy hayotida samarali ishtirok etish salohiyatiga ega.

Haqiqatan ham yosh avlod jamiyatning eng faol va iqtisodiy jarayonlarda yuqori samaradorlik bilan ishtirok etishga qodir qatlamini tashkil etadi. Shu bois oliy ta'lim muassasalari yoshlar salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni yangi tashabbuslarga undash va zamonaviy tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz olimlaridan yana biri N.X. Shoaxmedova o'z qarashlarida yoshlarni tadbirkorlikka tayyorlashda ta'lim tizimi muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning fikricha, O'zbekistonda tadbirkorlik asoslari, innovatsion g'oyalarni amalga oshirish va biznes-rejalar tuzishga oid mavzularni qamrab olgan maxsus kurslar hamda dasturlar joriy etilmoqda. Shuningdek, yoshlar orasida tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish maqsadida turli tanlovlar, seminarlar va master-klasslar tashkil etilmoqda.

Zamonaviy yosh tadbirkor odatda 35 yoshgacha bo'lgan, kichik xodimlar tarkibiga ega bo'lgan kichik biznes subyekti sifatida tavsiflanadi. Yosh tadbirkorlarning o'ziga xos jihati ularning tavakkalchilikka moyilligi va biznes faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etishga intilishida namoyon bo'ladi. Yosh tadbirkorlar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, tadbirkorlarning 70 foizdan ortig'i o'z biznesini 25 yoshga to'lmasdan avval boshlagan. MDH mamlakatlari olimlari R.I. Malikov, A.G. Komarov va S.Yu. Bogdanovlar yoshlar tadbirkorligining shakllanishi ko'plab o'zaro bog'liq omillar majmuasiga tayanishini ta'kidlaydi. Mazkur jarayon samaradorligi nafaqat iqtisodiy resurslar mavjudligiga, balki yoshlarning ijtimoiy faolligi, institutsional qo'llab-quvvatlash darajasi hamda bozor infratuzilmasining rivojlanganligiga ham bevosita bog'liqdir.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda uchta asosiy omil - ijtimoiy, iqtisodiy va institutsional omillar majmuasi kompleks ta'sir ko'rsatadi. Har bir omil alohida ko'rib chiqilganda, u yoshlarning biznesga kirishish motivatsiyasini shakllantirish, resurslarga kirish imkoniyatini kengaytirish va tadbirkorlik muhiti barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ilmiy ma'lumotlar xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, rasmiy normativ-huquqiy hujjatlar hamda yetakchi xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari asosida to'plandi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, mantiqiy umimlashtirish va tizimli yondashuv usullari orqali tahlil qilinib, ularning ilmiy-amaliy jihatlari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Ijtimoiy omillar yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan qiziqishi va tayyorgarligini belgilovchi muhim psixologik hamda ijtimoiy ko'rsatkichlar sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy omillar bozor sharoitlari, resurslar, infratuzilma va hududiy rivojlanish darajasi orqali tadbirkorlikning real imkoniyatlarini shakllantiradi. Institutsional omillar esa davlat qo'llab-quvvatlashi, normativ-huquqiy baza, startup infratuzilmasi va ta'lim tizimi orqali yoshlar uchun qulay tadbirkorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy omillar yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga kirishish motivatsiyasi, oilaviy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy kapital, ta'lim sifati hamda jamiyatning tadbirkorlikka bo'lgan munosabatini o'z ichiga oladi. Ushbu omillar shaxsning ijtimoiy-psixologik tayyorgarligini shakllantirib, tadbirkorlikni boshlash istagi va unga bo'lgan ishonch darajasini oshiradi.

Iqtisodiy omillar yosh tadbirkorlar uchun zarur bo'lgan moddiy va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini, bozor infratuzilmasining rivojlanganlik darajasini hamda hududiy iqtisodiy sharoitlarni belgilaydi. Ularning har biri tadbirkorlik jarayonida mavjud imkoniyatlar va ehtimoliy cheklavlarni yuzaga chiqaradi. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasi va davlat tomonidan taqdim etiladigan iqtisodiy imtiyozlar yangi biznes g'oyalarining shakllanishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Institutsional omillar yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlovchi rasmiy tizimlar va davlat institutlari faoliyati bilan bog'liqdir. Biznes-inkubatorlar, texnoparklar, akseleratorlar va davlat dasturlari yoshlar uchun zarur tashkiliy, huquqiy va axborot infratuzilmasini shakllantiradi. Institutsional omillarning barqaror va samarali ishlashi tadbirkorlik muhitining barqarorligi va qulayligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Tadbirkorlik fenomeni iqtisodiy tafakkur tarixida turli davrlarda shakllangan nazariy konsepsiyalar orqali izohlanib kelgan. Klassik iqtisodiyot vakillari risk, ishlab chiqarish omillarini uyg'unlashtirish va bozor noaniqligi kabi tushunchalarni tadbirkorlikning asosiy belgisi sifatida ko'rsatgan bo'lsalar, keyingi nazariyalar tadbirkorni innovatsiya yaratuvchi va iqtisodiy dinamikani shakllantiruvchi yetakchi kuch sifatida baholaydi. Shu bois yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jarayoni alohida subyektlar faoliyati bilan emas, balki davlat, moliya, ta'lim va innovatsion institutlar o'rtasidagi o'zaro bog'liq hamda muvofiqlashtirilgan tizim orqali samarali amalga oshiriladi. Mazkur kompleks yondashuv yoshlarning biznes faoliyatiga kirib kelishini yengillashtiradi va ularning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshiradi (1-rasm).



1-rasm. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning integratsiyalashgan infratuzilma tarkibi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, Yevropa Ittifoqi davlatlarida yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashning asosiy tamoyili ta'lim, moliya va mentorlik xizmatlarini yagona ekotizimga integratsiya qilishdan iborat. Ta'lim tizimi yoshlarni nafaqat nazariy bilimlar bilan ta'minlaydi, balki amaliy loyihalar, real biznes vaziyatlari va startap muhitiga bevosita kirish imkoniyatini ham yaratadi. Bu yondashuv yoshlarning iqtisodiy xulq-atvorini tadbirkorlikka yo'naltiruvchi kuchli motivatsion omil sifatida namoyon bo'ladi.

Osyo davlatlari, xususan, Janubiy Koreya va Singapur tajribasi davlatning faol strategik yondashuviga asoslanadi. Ushbu mamlakatlarda hukumat tomonidan yoshlar uchun grantlar, imtiyozli kreditlar, boshlang'ich kapital jamg'armalari, biznes-inkubatorlar va texnoparklar orqali startaplar uchun qulay va xavfsiz muhit yaratiladi. Natijada, yoshlar uchun tavakkalchilik darajasi kamayib, innovatsion faoliyatga faol kirishish imkoniyati kengayadi.



Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, yoshlar tadbirkorligi shaxsiy motivatsiya, ta'lim sifati, innovatsion fikrlash, ijtimoiy-madaniy omillar, institutsional sharoitlar, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati va tadbirkorlik ekotizimining rivojlanganlik darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishni faqat iqtisodiy jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy, institutsional va innovatsion omillar uyg'unligida shakllanuvchi kompleks tizim sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Nazariy jihatdan, yoshlar tadbirkorligi iqtisodiy o'sishning mustaqil drayveri bo'lib, innovatsion taraqqiyot, bandlik, hududiy rivojlanish va iqtisodiy diversifikatsiyaning strategik omili sifatida qaralishi lozim. Shu sababli, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan siyosat va mexanizmlar puxta nazariy asoslar bilan uyg'un holda ishlab chiqilganda, ularning iqtisodiy samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xolov A.X. O'zbekiston yoshlarida tadbirkorlik ijtimoiy mas'uliyatini oshirish. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Akademiya, 2014. – 135 b.
2. Иванов Г.Г., Орлов С.Л., Баженов Ю.К. Молодежное предпринимательство: современне реалии и взгляд в будущее // Вестник экономики, права и социологии. – 2014. – № 4. – С. 31–34
3. Shoaxmedova N.X. Biznesning ijtimoiy mas'uliyati konsepsiyasi doirasida yoshlar tadbirkorligi // Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili. – Q., 2024. – 899 b.
4. Маликов Р.И., Комаров А.Г., Богданова С.Ю. Современне тенденции формирования организационной культурй молодежного предпринимательства // Проблемй теории и практики предпринимательства. – 2014. – С. 172–175.
5. Андреева О.В., Суховеева А. А. Молодежное предпринимательство и эффективне инструментй эго развития // СИТИСЕ. – 2020. – № 2 (24). – С. 385–393.
6. Богданова И.М. Государственное регулирование и инфраструктурное обеспечение региональной системй молодежного предпринимательства в сфере туризма: автореф. дис. ... канд. экон. наук. – Санкт-Петербург, 2021. – 26 с.
7. Ceptureanu S.I., Ceptureanu E. G. Challenges and barriers of European young entrepreneurs // Management Research and Practice. – 2015. – Vol. 7, issue 3. – Pp. 34–58.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100